

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



Bosh muharrir:

p.f.d., prof., S.T. Turg'unov

Mas'ul muharrir:

PhD., dots., A.A. Rasulov

Mas'ul muharrir o'rinbosari:

PhD., dots., O.N. Imomov

TAHRIR HAY'ATI

Fizika-matematika fanlari: akad. S. Zaynobiddinov
akad. A. A'zamov
f-m.f.d., prof. B. Samatov
f-m.f.d., dots. R. Hakimov
f-m.f.d., dots. B. Abdulazizov
f-m.f.n., dots. A. Xolboyev

Biologiya fanlari: akad. K. Tojibayev
akad. R. Sobirov
b.f.d., prof. A. Batashov
b.f.d., prof. N. Abdurahmonov
b.f.d., prof. F. Kushanov
b.f.d. A. Kuchboyev
b.f.d., dots. D. Dexqonov

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A. Umarov
t.f.d., prof. S. Yunusov

Tarix fanlari: akad. A. Asqarov
s.f.d., prof. T. Fayzullayev
s.f.d., prof. N.B. Dexkanov
t.f.d, prof. A. Rasulov

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M. Ismoilov
f.f.d. dots. Z. Isaqova
f.f.d., G. G'affarova
p.f.d., dots. T. Ismoilov
PhD. A. Abdullayev

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U. Inoyatov
p.f.d., prof. B. Xodjayev
p.f.d., prof. O'. Asqarova
p.f.n., dots. M. Nishonov
p.f.n., dots. A. Sattarov
p.f.n., dots. M. Asqarova
p.f.n., dots. Sh. Xo'jamberdiyeva
p.f.d., dots. S. Abdullayev
PhD. D. Sarimsakova
PhD. B. Urinov

Texnik muharrir: S. Xoshimov

Tahririyat manzili: Boburshox ko'chasi, 161-uy

Kimyo fanlari: akad. S. Nigmatov
k.f.d., prof. Sh. Abdullayev
t.f.d., v.b. prof G'. Doliyev
k.f.n., dots. T. Sattarov
k.f.n., dots. A. Hurmamatov
PhD. D.S. Xolmatov.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N. Uluqov
fil.f.d., prof. H. Usmanova
PhD. H. Solixo'jayeva
PhD. dots. U. Qo'ziyev
PhD. H. Sarimsoqov
fil.f.d., N. Dosboyeva

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B. Kamalov
q-x.f.n., dots. A. Qazaqov

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B. Kamalov
g.f.d., prof. A. Nigmatov
g.f.d., dots. A. Nazarov

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N. Maxmudov
i.f.d., prof. O. Odilov

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'. Abdullayev
tib.f.n., dots. S. Boltaboyev

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof. Z. Nishanova
p.f.n., dots. M. Maxsudova

Rasmiy web sahifa:



journal.namdu.uz

Faks: (0369)227-07-61

e-mail: science@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамДУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega NamDU Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2024-yil 11-apreldagi kengaytirilgan 4-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 4). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ibotova Madina Otabek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
ibotovamadina@gmail.com

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA JON VA O'LIM MUAMMOSINING BADIY TALQINI

Annotatsiya: Maqolada ulug' shoir Alisher Navoiy lirikasida qo'llanilgan jon va o'lim mavzuning badiiy talqini xususida fikr yuritiladi. Ruh (jon) va o'lim haqidagi qarashlarning manbalari hamda ulug' shoir lirik merosida mazkur tushunchalar orqali ifodalangan mavzular ko'lami tadqiq qilingan. Shu bilan birga shoir tomonidan o'lim tasvirida qo'llangan badiiy tasviriy vositalar, an'ana va ijodiylik masalalariga ham munosabat bildirilgan.

Tayanch so'zlar: jon, ruh, o'lim, qayta tug'ilish, sayohat, ko'chish, ketish, nafs, ishq, oshiq

Иботова Мадины Отабек кизи

Преподаватель Бухарского государственного педагогического института

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ТРАКТОВКА ПРОБЛЕМЫ ДУШИ И СМЕРТИ В ПОЭЗИИ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация: статья посвящена художественной интерпретации темы души и смерти, использованной в лирике великого поэта Алишера Навои. Исследованы источники взглядов на душу (душу) и смерть, а также масштабы тем, выраженных этими понятиями в лирическом наследии великого поэта. В то же время рассматриваются вопросы художественных изобразительных средств, традиций и творчества, использованных поэтом в изображении смерти.

Ключевые слова: душа, дух, смерть, возрождение, путешествие, переезд, отъезд, похоть, любовь, влюбленный

Ibotova Madina Otabek kizi

Teacher of Bukhara State Pedagogical Institute

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE PROBLEM OF LIFE AND DEATH IN THE POETRY OF ALISHER NAVOIY

Abstract: The article discusses the artistic interpretation of the theme of life and death used in the lyrics of the great poet Alisher Navoi. The sources of views about the soul and death and the range of themes expressed through these concepts in the lyrical legacy of the great poet are explored. At the same time, the poet also commented on the issues of artistic imagery, tradition and creativity used in the image of death.

Key words: soul, spirit, death, rebirth, travel, migration, departure, desire, love, lover.

Kirish

Sharq falsafasida jon va ruh, jon va o'lim tushunchalari turli falsafiy va diniy an'analarga ko'ra turlicha talqin qilingan. Ruh va uning tabiati falsafa, din va tasavvuf kabi fanlar doirasida muhokama qilinadi. Mazkur tushunchalar adabiyotning ham muhim masalalari sirasi kiradiki, mumtoz va zamonaviy adabiyotda jon va ruh, jon va o'lim mavzulariga murojaat qilingan. Bu tushunchalar, asosan, olam va odam mohiyatini, inson hayotining o'tkinchiligini badiiy talqin qilishda qo'llanilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Alisher Navoiy lirik merosining mavzular olami keng. O'zbek adabiyotshunosligimizda ulug' shoir lirik merosiga doir qator tadqiqotlar yaratilgan. Ayniqsa,

Istiqloldan keyingi davr navoiyshunosligida Alisher Navoiy lirik merosi o'zining ilohiy-irfoniy manbalari bilan qiyosiy o'rganildi. Jumladan, B.Valixojayev, A.Hayitmetov, N.Komilov, R.Vohidov, H.Ne'matov, M.Mahmudov, I.Haqqulov, M.Muhiddinov, A.Abduqodirov, D.Salohiy, N.Jabborov, S.Olimov, N.Jumaxojayev, Sh.Hayitov, K.Mullaxojayeva, U.Qobilov, U.Jo'raqulov, D.Yusupova, H.Eshonqulov, M.Rajabova, N.Bozorova, Z.Mamadaliyeva, N. Bekova, Z.Amonova, O.Davlatov, M.Asadov, Z.G'afforova kabi adabiyotshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari yaratildi. Ta'kidlangan tadqiqotlarda shoir ijodining turli qirralari o'rganildi.

Natijalar va muhokama

Allohning yaratilari ichida xalifalik sifati bilan bezangan inson vujudi jon (ruh) va tana (vujud)dan tashkil topgan. Ruh soʻzi lugʻatda shamol, nafas, shodlik, jon, rohat, yengillik, harakat; nafs; ruh, jon, hayot, hayot tamoyili, nafas¹⁵ degan maʼnolarda berilgan. “Qurʻon”da “borliq, shaxs, inson, nafs va xohish, qon, tana” kabi maʼnolari mavjud.

Jon (ruh)ning ibtidosi va intihosi (oʻlim) bilan bogʻliq qarashlar falsafaning asosiy muammolaridan biri boʻlishi bilan birga, mazkur tushunchaning din va adabiyot, tasavvufda ham oʻziga xos talqinlari yuzaga kelgan. Insoniyat yaratilibki, hayot va oʻlim muammosi dini va eʼtiqodidan qatʼiy nazar butun insoniyatni oʻylantirib kelgan.

“Yoʻq boʻlish” maʼnosini anglatuvchi oʻlim - jismoniy faoliyatni toʻxtatish natijasida insonning hayotdan ketishidir. Bir tomondan, odamlar oʻlimdan qoʻrqib, oʻlmaslikka intilib, oʻlimni inkor etishga harakat qilishgan. Boshqa tomondan, uni toʻxtatib boʻlmaydigan haqiqat ekanligini anglab, oʻlim bilan bogʻliq turli urf – odat va marosimlarni oʻtkazganlar.

Qadimgi turkiy eʼtiqodlarga koʻra, inson ruhi oʻlmas boʻlib, tana oʻlgandan keyin ruh uni tark etib, boshqa oʻlchovga oʻtadi, deb tasavvur qilingan. Umuman olganda, dunyo xalqlari mifologiyasida hayot va oʻlim haqidagi qarashlar maʼnaviy eʼtiqod, madaniy anʼanalar, barcha tirik mavjudotlarning oʻzaro bogʻliqligini chuqur anglashga qaratilgan.

Taʼkidash kerakki, ruhning adabiyligi diniy kitoblarda zikr qilingan. Ruh (jon)ning inson vujudida maʼlum bir muddatda boʻlishiga “hayot” deyiladi. Bu “hayot”ning boshlanishi va chegarasi bor. Bu hayotning boshlanishi Alloh tomonidan ruhning “puflanishi” bilan sodir boʻlsa, yakuni ruh (jon)ning tanani tark etishi bilan xotima topadi. Bu esa “oʻlim” hisoblanadi. Demak, ruh (jon)ning vujud bilan qovushishi Yaratganing irodasi bilan sodir boʻlganidek, tanani tark etishi ham uning izmidadir. Bu haqda Qurʻoni karimning “Fajr” surasi, 27–28-oyatlarida “: «Ey, **xotirjam** (sokin) **jon!** (Ato etilgan neʼmatlardan) **rozi boʻlgan** (va Alloh tomonidan) **ham rozi boʻlingan holingda, Rabbing** (huzuri)ga qaytgin!» yoki “Ankabut” surasida “**Har bir jon oʻlimni tatib koʻradi, soʻngra Allohga qaytarilur. Alloh ajali kelgan hech bir jonning oʻlimini kechiktirmaydi**” deyiladi. Islom diniga koʻra, oʻlim inson hayotining tugashi (oxiri)i va oxiratning boshlanishidir. Diniy qarashlarga koʻra, ruh tanani tark etadi va oʻlimdan keyin inson qilmishiga qarab jannatda yoki doʻzaxda abadiy hayot kechiradi.

Koʻrinib turibdiki, jonning vujudan ajralishi natijasida oʻlim sodir boʻladi. Inson ruhi abadiylikka,

vujudi esa “yoʻq boʻlish”ga mahkumdur. Oʻlim natijasida tanadagi ruh Mutlaq ruh bilan birlashadi. Yaʼni asl Mahzarga qaytadi. Oʻrta Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligi boʻlgan “Avesto”ni tadqiq qilgan olim M. Mahkamov bu moʻtabar manbada “olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari: yaxshilik va yomonlik, yorugʻlik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va oʻlim haqidagi ilmiy va diniy qarashlar” oʻz aksini topganligini qayd qiladi.¹⁶

Animistik qarashlarga koʻra, odam oʻlgach, uning ruhi boshqa jism koʻrinishida qayta tiriladi, narigi dunyoga oʻtgan ruh daraxt yoki oʻsimlik, gul koʻrinishida bu olamga qaytib kelishiga ishonilgan.¹⁷ Ayniqsa, odam oʻlganidan keyin ruhi qush boʻlib uchib ketishi bilan bogʻliq tasvirlar folklor va mumtoz adabiyot namunalarida tez-tez koʻzga tashlanadi. Adabiyotshunos olim B. Sarimsoqovning fikricha, “Jon esa osmonga uchib ketadi. Ruh ham tanani tark etadi, ammo qush yoki boshqa jondor sifatida oʻlganining uyiga, uning yaqinlaridan xabar olgani tez-tez kelib turadi.” Albatta, jon (ruh) va oʻlim haqidagi bunday tasavvurlar barcha janr namunalarida kuzatiladi. Jumladan, ilk tasavvufiy doston – “Qutadgʻu bilik”da hayot va oʻlim muammosi Qurʻoniy gʻoyalar asosida berilgan boʻlib, unda oʻlimning muqarrarligi Kundugʻdi va Oʻzgʻurmish suhbatlari jarayonida koʻrsatib beriladi.

Ne ezgu ish erdi oʻlum boʻlmasa,
Ne koʻrklugʻ ish erdi kishi oʻlmasa.

Yoki:

Necha (qachsa) axir (oʻlim) tutgʻusi,
Necha (qalsa) axir (oʻlim) yetgusi.

Abadiy hayotni orzu qilish, oʻlimni yengish azaliy va abadiy mavzulardan boʻlib kelgan. Baytlarda taʼkidlangan gʻoyalar diniy manbaga uygʻun ekanligini quyida keltirilgan oyati karima ham tasdiqlaydi: “*Aytin: “Sizlar qochayotgan bu oʻlim, albatta, sizlarga yoʻliquvchidir. Soʻngra sizlar gʻaybu shahodatni biluvchi Zotga qaytarilursizlar. Bas, U zot sizlarga qilib oʻtgan amallaringizning xabarini berur!”* (Jumʼa surasi, 8-oyat).¹⁸

Demak, Sharq adabiyotida “oʻlim” ruhning oʻlmasligi, qayta tugʻilishi yoki abadiyligiga ishonish bilan bogʻliq. “Oʻlim kategoriyasi hayotning tugashi va insonning ruhiy olami bilan gunohlarning toʻkilishi va boqiylik falsafasi tushunchasi bilan dinga chambarchas bogʻlanadi.”¹⁹

Bundan tashqari, Sharq falsafasida oʻlim koʻpincha hayotning oʻtkinchiligi, yer yuzida inson mavjudligining chegaralanishi kabi umumbashariy mavzularning badiiy ifodasi uchun xizmat qiladi. Islomiy mintaqa madaniyatida oʻlim odatda insonning muqarrar taqdiri sifatida koʻriladi va hayot aylanishining tabiiy bir qismi

¹⁵ Süleyman Uludağ, “Nefis” *DİA*, İstanbul, 2006. XXXII, s. 526.

¹⁶ Авесто. М. Маҳкамов таржимаси. – Т.: Шарқ. 2001. 248-б.

¹⁷ Штенберг Л.Я. Эволюция религиозных верований. Первобытная религия. - Л., 1936. - С. 337-477. Тайлор Э. Первобытная культура. - М.: Политиздат, 1989. - С.359.

¹⁸ Қуръони Карим. Таржима ва шарҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 76.

¹⁹ Алиева Д. Эволюция поэтического мира Чингиза Айтматова (категория смерти, категория возраста). Дисс.. канд. филол. наук. – Т.; 1998. - С 20.

sifatida qabul qilinadi. Xoja Ahrorning “Faqarotu-l-orifiyn” asarida qayd qilinishicha, “Alloh quyoshdir, olamdagi barcha narsa va odamlar – uning zarralaridir. Tugʻilish – zarraning quyoshdan uzilib ketishi, oʻlim esa – zarraning asliga qaytib quyosh bagʻriga yetishidir.”²⁰ Umar Xayomning bir ruboiysi yuqoridagi gʻoyaga hamohangligi fikrimiz tasdigʻi uchun xizmat qiladi.

Sening maftuningman, berayin xabar

Uni ikki soʻz-la etay muxtasar:

Ishqing tuproq qilgay, ammo mehridingan

Boshimni koʻtarib, boʻlgim jilvagar²¹

Lirik qahramonning “boshini koʻtarib, jilvagar boʻlishi” Sharq falsafaning oʻzak masalasi boʻlgan oʻlimdan keyin “qayta tirilishga” ishoradir. Bundan tashqari, oyogʻimiz ostidagi zaminni oʻtganlar xoki sifatida talqin qilish ham shoir lirikasida koʻp uchraydi. Xuddi shunday motiv Gadoiyning lirikasida ham koʻzga tashlanadi:

Gʻofil oʻlma, ey Gadokim, nozaninlar jismidur,

Bu qaro tuproq uza har qayda bosarsen qadam.²²

Baytda insonning tuproqdan yaralib, yana tuproq boʻlishi bilan bogʻliq tasavvufiy qarash singdirilgan.

Sharq madaniyatida oʻlimga koʻpincha tiriklik jarayoni sifatida qaraladi. Chunki soʻfiylar oʻlimni dunyo hayotining oxiri emas, balki haqiqiy hayotning boshlanishi deb biladilar. Soʻfiylik taʼlimotida ruhning ozod boʻlishi va uning Xudoga qoʻshilishi muhim sanaladi. Oʻlimdan soʻng ruh Xudo bilan birlashadi va abadiy sevgiga toʻladi, deb talqin qilindi. Shuning uchun ham sharq falsafasida oʻlim – sayohat, ketish, koʻchish maʼnolarini bildirgan. Inson oʻlim bilan yoʻq boʻlib ketmaydi, balki foniy dunyodan abadiy dunyoga oʻtadi deb ishonilgan.

Turk sheʼriyatiga oʻlim mavzusini Yunus Emro olib kirganligi taʼkidlanadi.

Ten fânidür cân ölmez çün gitdi girü gelmez,
Ölürise ten ölür cânlar ölesi degül.

Yoki:

Ölümünden ne korkarsın çünkü Hakk’a

yararsun

Belkʻebedi varasın ölmek fâsih işidür.²³

Uning fikricha, oʻlim bu har qanday yuk va har xil moddiy boyliklardan xalos boʻlishdir. Inson Xudoga yetishi uchun avvalo oʻlim yoki yoʻqlik sahrosini bosib oʻtishi kerak.

Diyen ol işiden ol gören ol gösteren ol

Her sözü söyleyen ol suret can menzildir.²⁴

Keltirilgan baytda Allohning sifatlati taʼriflanishi bilan birga, surat yaʼni tana ruhning soʻngi “saroyi” boʻlib,

Haqning inson borligʻidagi siri ekanligi badiiy talqin qilingan. *Surat – vujud, surat – jon manzili*. Yunus Emroning fikricha, tana ruhning manzili, jismni tutib turgan narsa jon (ruh), ruhsiz tana harakatsizdir.

Demak, inson tabiati tana va ruhdan iborat. Ruh – abadiy, tana esa oʻtkinchi. Vujud tuproqqa aylansa, ruh Mutlaq ruh bilan qovushadi. Mumtoz adabiyotda koʻpincha oʻlim insonning maʼnaviy dunyosi bilan bogʻliqlikda talqin etiladi. Buni mazkur soʻzga lugʻatlarda berilgan izohlar ham tasdiqladi. “Tasavvuf lugʻati”: “Mavt. Oʻlim. Nafsni tub ildizi ila havoyu havas zaminidan ajratib tashlamoq. Chunki havoyu havas nafsning joni erur”.²⁵ Koʻrinib turibdiki, mumtoz manbalarda oʻlim tasavvuf falsafasining oʻzagi boʻlgan “Oʻlmasdan burun oʻling” (“Mutu qabla an tamutu”) gʻoyasi bilan bogʻlangan.

Inson va uning oʻlimi bilan bogʻliq mavzu Sharq sheʼriyatning asosiy mavzulari biri sanaladi. Nafs, ishq va oshiqlik masalalarining badiiy talqinida oʻlim mavzusiga koʻp bora murojaat qilinadi. Demak, oʻlim ikki maʼnoda qoʻllanadi. Birinchisi, jismoniy oʻlim, ikkinchisi, nafsoniy oʻlim.

Ulugʻ oʻzbek shoiri Alisher Navoiy lirikasida ham qalb erkinligi, oʻlimning asl mohiyati, insonning maʼnaviy uygʻonishi haqidagi chuqur falsafiy fikrlar mavjud. Oʻlim bu ruhning erkinligini taʼminlovi hodisadir. Shuning uchun Alisher Navoiy lirikasida ruh va oʻlim oʻrtasidagi munosabat koʻpincha *sogʻinch, ayriliq, vafo, sadoqat, hayotning oʻtkinchiligi* kabi mavzular orqali badiiy talqin qilinadi. “Gʻaroyib us sigʻar” devoni ga 427- raqamli gʻazalida oshiqning ruhiy holati oʻlim vositasida ochib berilgan. Lirik qahramon - oshiq. U maʼshuqasining visolidan noumid. Hajr uning joniga oʻlim xavfini solmoqda. Hajrdan yetgan ozor tigʻ ogʻrigʻidan ogʻir. Bu bilan bogʻliq tasvir gʻazalning dastlabki baytida badiiy ifodalanada.

Hajr ila koʻrma ravo jonimgʻa bepoyon oʻlum,

Tigʻ surkim, xushdurur oz ogʻrigʻu oson oʻlum.²⁶

Oshiq uchun oʻlim barcha narsadan xushroq, yaʼni yaxshiroq. Shuning uchun u “jon berib” oʻlimni istaydi. “Jon bermoq” - biror ishda astoydil gʻayrat koʻrsatmoq; jonbozlik, fidokorlik qilmoq²⁷. Baytda tasvirlangan oʻlim jismoniy oʻlim. Chunki oshiqning bunday oʻlimi uni “jonon” bilan birlashtiradi. Jonon – maʼshuqa uning oʻlimini istaydi.

Jon berib istarmen oʻlmaki, oʻlum xushroqki jon,

Jonim oʻlmakdur chu istaydur manga jonon oʻlum.

²⁰ Хожа Убайдуллоҳ Аҳроп. Фақароту-л-ориғийн. Табаррук рисолалар. –Т.: Адолат. 2004.

²¹ Умар Хайём. Рубоийлар. –Т.: Камалак, 1985. 45-б.

²² Гадоий. Девон. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Эркин Аҳмадхўжаев. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.100-б.

²³ Fatoş Yalçinkaya.Yûnus Emre’de can/ruhkavrami.

<https://www.idealonline.com.tr/IdealOnline/lookAtPublications/paperDetail.xhtml?uld=139599&>

²⁴ Юнус Эмро.Ишқ тили.Анқара: Отатурк номидаги маданият маркази бошқармаси. 2022.91-бет.

²⁵ Чори Иброҳим. Тасаввуф луғати. / Тафаккур. 1998. 4-сон, 91-бет.

²⁶ Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. III жилд. –Т.: 1988. 336-б.

²⁷ ЎТИЛ. 5- жилд. 2- жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.104-бет.

Shoir g'azalning keyingi baytida oshiq holatni mubolag'ali tasvirlaydi. Hatto oshiqning "o'lmagi"ga xalq hayron, hajri oldida esa "o'lim ham hayron".

Xalq dushvor o'lmagim hayronidurlar, turfa ko'r,
Kim erur dushvor hajrim ollida hayron o'lum.

G'azalning to'rtinchi baytida lirik qahramon holati tamsiliy talqin qilingan. Halqda "Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi" degan maqol bor. Oshiq ko'nglidagi hajrini yashira olmaydi. Shu bois, uning o'limi ham pinhon qolmadi.

Hajr qolmas yoshurun, ohu fig'on chek, ey
ko'ngul,

Kim yashurmoq birla hargiz qolmadi pinhon
o'lum.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda "vasl"ga ishqning qiymatini pasaytiruvchi omil deb qaraladi. Buni Farhod va Shirin, Layli va Majnunlarning o'limi ham tasdiqlaydi. Chunki haqiqiy oshiqlarning maqsadi jismoniy vasl emas. G'azalning keyingi baytida "sharbat vasl" orqali dard-u hijronga davo topish mushkul (sa'b) ekanligi, dardning davosi faqatgina "o'lim" ekanligi ta'kidlangan.

Dardi hijron sa'bu yetmas sharbat vasl, ey
tabib,

Go'yyokim ushbu dardimg'a erur darmon
o'lum.

G'azalning yuqorida keltirilgan barcha baytlarida jismoniy o'lim, ya'ni jonning vujudni tark etishi bilan bog'liq badiiy talqinlar berilgan. Bunday o'lim Ishqqa yetishning oson yo'li sanalgan. Haqiqiy o'lim esa oshiqning ishq yo'lida foni bo'lishidir. Foni bo'lmoq - oshiqning Alloh ishqiga g'arq bo'lmo'g'idir.

Foni bo'lmay qilg'on izhori fano, bilkim, erur,
Ul gadokim, rizq uchun zohir qilur yolg'on o'lum.

Oshiqning foni bo'lmay turib, "izhori dil" qilishi bu xuddi gadoning rizq uchun yolg'ondan o'lishi kabi. Foni bo'lish - o'zlikdan kechish. Dunyoviy muhabbatdan mosuvo bo'lgan ko'ngildagina ilohiy ishq jilvalanadi. Navoiy muxammasidan keltirilgan quyidagi baytda ham xuddi shu g'oya ilgari surilgan.

Ey Navoiy, davlati boqiy tilarsen vaslidin,
Oni kasb etmak fano bo'lmay ne imkon oqibat.

Baytda "davlati boqiy - Iloh visoli"ga faqatgina "fano bo'lish" orqali muyassar bo'lish mumkinligi ta'kidlangan. Fano bo'lish - bu jismoniy o'lim emas, balki o'zlik (nafs)ni mahv etishdir. Ya'ni kibr-u havodan qutilib, fano orqali boqiylik maqomiga erishishdir. Tahlilga tortganimiz g'azalning keyingi baytida ham shu g'oya o'ziga xos tarzda talqin qilingan.

Ey Navoiy, jahl ila o'lmak qatiq ishdur, valek,
Chun kamoli ma'rifat kasb o'ldi, ne nuqson o'lum?

Ma'rifat islom tasavvufida muhim tushuncha hamda maqomdir. Ma'rifat - Allohni bilish, Uni anglash va Unga yaqinlashish demakdir. Bu tushuncha Xudoga muhabbat va sadoqatni chuqurlashtirish, Unga yaqinlashish jarayonini nazarda tutadi. Ma'rifat so'fiylik yo'lidan yurgan insonning Allohga muhabbati va ixlosini oshirib, ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi tushunchadir.

Ahmad Yassaviyning "Faqrnoma"sida ma'rifatning o'n maqomining dastlabgisi "fano bo'lish" deb ta'kidlangan²⁸. Solikning asl maqsadi fano orqali baqoni qo'lga kiritishdir.

Alisher Navoiy g'azal maqta'sida "jahl ila o'lmak qatiq ish" ya'ni ma'qul ish emasligini ta'kidlaydi. Shoir jismning ma'rifatsiz o'limini "nuqsonli o'lum" sifatida talqin qiladi.

Ta'kidlash kerakki, ilohiy ma'rifatdan mast bo'lgan orif o'limni uzliksiz eslaydi. Boisi, u yaxshi biladi: o'lim - visol, suyukli Zot huzuriga oshiquv. "Tasavvuf ta'limotida o'limga fojia deb qaralmagan. Aksincha, u orifni vujudiy qafasdan xalos etuvchi, uning ruhiga hurlik va ozodlik baxsh etuvchi vosita sifatida baholangan."²⁹ Alisher Navoiyda xuddi shu xulosaning badiiy ifodasini quyidagi baytlarda ko'rishimiz mumkin:

O'zdin qutul, Navoiy yu maqsadg'a yetki, qush
Yetmas chamang'a, bo'lsa qafas ichra muftalo.³⁰

Yoki

Taning'a choklar ochti, ne ayb agar o'lsam
Ki, ruh bulbulining loyihi emas bu qafas³¹

"O'zdin qutulmoq" - nafsning o'limi. Qush - ruh timsoli. Vujud - qafas. Qafasdagi qush ozod bo'lsagina parvoz qila oladi. Baytda tamsil orqali ruhning kamolga yetishi badiiy talqin qilingan.

Ikkinchi baytda ruhning ko'rinmasligi bilan bog'liq qarash o'z ifodasini topgan. Loyih- ochiq, oshkor, ko'rinib turgan ma'nolarini anglatuvchi so'z. Qafas- vujud. Vujud "ruh bulbuli" ko'rinmasdir. Ishq oshiq ko'ngliga "chok"lar ochgan. Chok -yara, dard, jarohat³². Bu darddan oshiq o'lsa, ayb emas, chunki "ruh bubuli" qafasini istamaydi, - deydi shoir. G'azzoliy yozadi: "Ruh hastii nestnamoydurki, kishi anga yo'l topmas va sultoni qohir va mutasarrif uldur. Qolib aning asiru bechorasidir. Har ne ko'rsalar Qolibdin ko'rarlar va Qolib andin bexabar; " Ya'ni „Ruh bor edi, yo'q bo'ladiki, kishi unga yo'l topmaydi va g'olib hamda egalik qiluvchi sulton ham udir. Qolib (tan) uning asiru bechorasidir. Insonlar har ne ko'rsalar Qolib (tan)dan ko'rarlar va Qolib (tan) esa bundan bexabar. Imom

²⁸ Абдурахмон Гўзал. "Ясавий факрнома" си. - Т: "Наврўз", 2014. 52-б.

²⁹ Адизова И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгилиниши. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. - Т.: 2000. 168-б.

³⁰ Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул-бидоя. - Т.: Фан, 1987. 62-б.

³¹ Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. III жилд. Фаройиб ус-сифар. - Т.: Фан, 1987

³² Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев ва С. Иброҳимов. Т.: Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. 474-бет.

G'azzoliyning ruh va jism, boqiylik va foniylik, yo'qlik (adam)dan bor bo'lish hamda borlikdan yo'q bo'lish (hasti nestnamon) kabi falsafiy-tasavvifiy masalalarga oid mulohazalarini qayd etganligini anglash mumkin³³.

Tasavvuf falafasida ishq inson vujudini noqis xislatlardan poklovchi vosita sifatida talqin qilinadi. Alisher Navoiy quyidagi baytida ishqni ruh va nafsni nobud qiluvchi vosita sifatida tasvirlaydi:

Ishq ko'nglumga tushub, nobud bo'ldi ruhu nafs,

O't chu bir kishvarga tushti - poku nopok o'rtanur³⁴

Baytda "ruhu nafs"ning nobud bo'lishini mamlakatga o't tushub, poku nopokning baravar kuydurishini ta'kidlaydi. Kishvar – vujud. Ishq ruh (jon) va nafsning o'limiga sababkoridir. Baytda ruh so'zi "jon" ma'nosida kelgan.

Turkiy xalqlar she'riyatida o'limni tasvirlashda "uchish", "sayohat", "ko'chib ketish" kabi metaforalar keng qo'llanilgan. Ushbu metaforalar o'limni insonning dunyoviy chegaralaridan tashqarida ruhiy sayohati sifatida tasvirlash imkonini beradi.

Navoiy mazkur an'anani davom ettirish bilan birga o'ziga xos tasvirlar yaratganligini quyidagi baytlarda ko'rishimiz mumkin.

Ey Navoiy, tushta gar ko'rmak ani mumkin esa,

Barcha gar xud so'ngg'i uyqudur, netarsen uyg'onib?

Xalqda "uyqu- o'lim" degan naql bor. Baytda lirik qahramon tushida ma'shuqasini ko'rganligi bilan bog'liq

tasvir keltirilgan. Tushida bo'lsa-da vaslga musharraf bo'lgan lirik qahramon "so'ngi uyqu"dan uyg'otishlarini istamaydi. "So'ngi uyqu" – o'lim.

Quyida keltirilgan baytda ham tushida vaslga erishgan lirik qahramon "so'ngi uyqu"sidan "hayvon suyi" bo'lsa ham ichirish uchun bedor qilmasliklarini so'raydi.

Tushta vasli bo'lsa gar xud, barcha so'nggi uyqudur,

Ey Xizr, hayvon suyi ichmakka bedor aylama.

Shoir boshqa bir g'azalida "baxt uyqusi" metaforasini qo'llaydi:

Ko'z ochib behudlug'umni ko'rmasa, yo'qtur ajab,

Kim manga baxt uyqusi bo'lmish anga noz uyqusi.

Baytda oshiq va ma'shuqaga tegishli bo'lgan ikki xil "uyqu" tasvirlangan. Ma'shuqa oshiqning bexudligini ko'rmaydi, sababi u noz uyquda. Bu hol esa oshiqqa "baxt uyqusi" - o'limni nasib etgan.

Umuman aytganda, mumtoz she'riyat an'analari jon (ruh) va o'lim inson hayoti va borlig'i haqidagi teran fikr va tuyg'ularni aks ettiruvchi muhim mavzu sifatida namoyon bo'ladi. O'lim inson hayotining muqarrar haqiqati sifatida tez-tez muhokama qilingan. Har ikkala tushunchaga oid turli metaforalar qo'llangan. Jon va o'lim ishq va oshiqlik, nafs va o'zlik, ayriliq, ajralish va vidolashuv, qayg'u va sog'inch mavzularning obrazli ifodasi uchun xizmat qilgan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abdurahmon Go'zal. "Yassaviy faqrnoma"si. - T: "Navro'z", 2014.
2. Avesto. M. Mahkamov tarjimasi. - T.: Sharq. 2001.
3. Adizova I. Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. - T.: 2000.
4. Aliyeva D. Evolyutsiya poeticheskogo mira Chingiza Aytmatova (kategoriya smerti, kategoriya vozrasta). Diss.. kand. filol. nauk. - T.: 1998.- S 20.
5. Navoiy Alisher. MAT. XX jildlik. I jild. Badoye' ul-bidoya. - T.: Fan, 1987.
6. Alisher Navoiy. MAT. G'aroyib us-sig'ar. III jild. -T.: 1988.
7. Gadoiy. Devon. Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi Erkin Ahmadxo'jayev. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
8. Navoiy asarlari lug'ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S. Ibrohimov. T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
9. Süleyman Uludağ, "Nefis" DİA., İstanbul, 2006. XXXII, s.
10. Umar Xayyom. Ruboiylar. -T.: Kamalak, 1985.
11. Штенберг Л.Я. Эволюция религиозных верований. Первобытная религия.- Л., 1936.- С. 337-477. Тайлор Э. Первобытная культура.- М.: Политиздат, 1989.
12. Yunus Emro.Ishq tili.Anqara: Otaturk nomidagi madaniyat markazi boshqarmasi. 2022.
13. Xoja Ubaydullo Ahror. Faqarotu-l-orifiyn. Tabarruk risolalar. -T.: Adolat. 2004.
14. Chori Ibrohim. Tasavvuf lug'ati. / Tafakkur. 1998. 4-son, 91-bet.
15. Qur'oni Karim. Tarjima va sharhlar muallifi Alouddin Mansur. - Toshkent: Cho'lpon, 1992.
16. O'TIL. 5- jildli. 2- jild. "O'zbekiston milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

³³ Amonova z.Q. Axrorova Z. "Nasoyim ul-Muhabbat" da Imom G'azzoliy talqini. Alisher Navoiy va XXI asr.

³⁴ Навоий Алишер. МАТ XX жилдлик. VI жилд. Фавойид ул-кибар. - Т.: Фан, 1990.117-б.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ibrohimova Ozoda Mirzadavlat qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, talaba

OGAHIIY IJODI SHARQSHUNOS OLIMLAR NIGOHIDA

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan serqirra ijodkorlardan biri Ogahiy hayoti va ijodi bilan keng ko'lamda tanishib chiqamiz. G'arb adabiyotshunos olimlari hamda o'zbek adabiyotshunos olimlarining adib ijodini turli jabhalarini tahlil qilgan ilmiy ishlari mazkur maqoladan o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Ogahiy, she'riy san'atlar, o'zbek adabiyotshunoslari, tarjima san'ati, G'arb adabiyotshunoslari, talmeh san'ati, sharq adabiyoti, g'azal, lirika, tarixiy asarlar.

Ибрагимова Озода

Ташкентский государственный университет востоковедения, студент

ТВОРЕНИЕ ОГАХИ ГЛАЗАМИ УЧЕНЫХ ВОСТОКА

Аннотация. Благодаря этой статье мы познакомимся с жизнью и творчеством Огахи, одного из самых плодотворных художников, нашего места в узбекской литературе. В данную статью включены научные труды западных литературоведов и узбекских литературоведов, анализирующие различные аспекты литературного творчества.

Ключевые слова: знания, поэтическое искусство, узбекские литературоведы, искусство перевода, западные литературоведы, искусство талмеха, восточная литература, газель, лирика, исторические произведения.

Ibrahimova Ozoda

Tashkent State University of Oriental Studies, student

OGAHI'S CREATION IN THE VIEWPOINT OF ORIENTAL SCIENTISTS

Abstract. Through this article, we will get acquainted with the life and work of Ogahi, one of the most prolific artists who have a place in Uzbek literature. The scientific works of Western literary scholars and Uzbek literary scholars analyzing various aspects of literary creativity are included in this article.

Keywords: knowledge, poetic arts, Uzbek literary scholars, translation art, Western literary scholars, talmeh art, Eastern literature, ghazal, lyric, historical works.

Kirish

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy hayoti va ijodini o'rganishga bo'lgan e'tibor O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Ogahiy haqidagi quyidagi fikrlaridan boshlanadi: "Agar Ogahiyning bosh miroblik ilmi va tadbirkorligi Xorazm zaminini suv bilan yashnatgan bo'lsa, uning badiiy tafakkuri va ko'ngil ziyosi millatimiz qalbini so'nmas qadriyatlar bilan nurafshon etdi" [1].

Darhaqiqat Ogahiy ilm-ma'rifat yo'lida ko'pdan-ko'p xizmat qilgan. Shuningdek ilm va adabiyotning kuchidan, quvvatidan ogoh bo'lgan Ogahiy xalq ma'naviyati yo'lida ko'b va xo'b yordami singan. Xalq dardini qog'ozga tushirgan mashhur shoir, ma'rifatparvar, ilmni olishni ilg'or suruvchi yozuvchi, faqatgina she'riyat san'ati emas balki Davlat ishlarida ham yuqori bilimga ega serqirra ijodkor, tarixchi, bir necha tillarda asarlarni tarjima

qilib, hattoki qaytadan hayot bahsh etgan mohir tarjimon Ogahiydir. Ogahiy ham otasidan erta ayrilgan va Muhammad Rizo amakisi va ustoz, mashhur tarixchi va shoir Munis laqabi Shir Muhammad ibn Amir Ivazbiy mirob qo'lida tarbiyalanib, unga o'qish va yozishni o'rgatgan. Diniy, falsafiy va umuminsoniy haqiqatlarni ifodalagan Qur'oniy mavzular va milliy mafkura ramzlari buyuk allomalar, mumtoz adabiyotimizning yirik namoyondalaridan biri Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy hisoblanadi. Navoiydan keyin ko'pdan-ko'p she'rlar yozgan takrorlanmas ijodkordir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida quyidagicha fikr bildirgan edi: "Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkuri va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgarishlarimizning mustahkam

poydevori bo'lib xizmat qiladi. Demak, bizning vazifamiz, avvalambor, mana shu ma'naviyatimiz sarchashmalarini va bobokalonlarimizning boy an'alarini davom ettirishdir" [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy hayoti va ijodini ko'plab adabiyotshunos olimlar o'rganishgan. Xususan, 2022-yili Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida "Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy an'ana masalasi" nomli Respublika ilmiyamaliy konferensiya to'plami nashr etildi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqolada adib hayoti va ijodi qiyosiy tipologik, tarixiy, analiz kabi metodlardan foydalangan holda tahlilga tortilgan.

Tahlil va natijalar: Xususan, 2020-yilning may oyida Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti jamoasi oldiga mumtoz adabiyotimizning favqulodda nodir shaxsi, ko'lamdor va sermahsul ijodkor, shoir, tarixchi, tarjimon, davlat arbobi, chin inson hazrat Ogahiyning hayot va ijod yo'lini o'rganish, u zotning qo'lyozma asarlarini tadqiq etish hamda o'lmas g'oyalarini talaba-yoshlar ongiga singdirish singari qator vazifalar qo'yilgan edi. Oradan o'tgan ikki-yilin oshiqroq fursat ichida universitetda bu borada arzirli ishlar amalga oshirildi.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti professori, filologiya fanlari doktori Xodjaeva Ra'noxon Umarovnaning "Ogahiy g'azallarida she'riy san'atlar" [3] nomli maqolalarida buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Muhammad Rizo Ogahiyning g'azallarida ishlatilgan she'riy san'atlar kuzatilib, ularning shoir she'riyatida tutgan o'rni, g'azallarning mazmun mohiyatini ochib berishda bajargan vazifasi, qo'llash usullari kabi masalalar ko'tariladi. Ogahiy g'azallarida talmeh, tazod, tashxis va boshqa san'atlar qo'llangani misollar orqali ko'rsatiladi, ular shoir lirikasiga qanchalik joziba berib, o'ziga xos badiiy uslub yaratganligi, yangi estetik qiymatlar shakllantirgani tahlil qilinadi.

Ogahiy ijodiyotining bebaho hikmatlari haqidagi sermazmun mulohazalarni batafsil keltirib bergan professor ustozlardan biri-Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti professori, filologiya fanlari doktori Muxibova Ulfatxon Uchqunovna o'zlarining "Ogahiy hikmatlari haqida mulohazalar" nomli maqolalarida adib ijodi haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar: "Ogahiy serqirra ijodkor adib bo'lib, uning hikmatlari xayotda har bir inson uchun kundalik mutolaa kitobi, desak mubolag'a bo'lmaydi" [4]. Ogahiy ijodi nafaqat mazmun va mavzular jihatdan xilma xil, balki janrlar xilma xilligi bilan ham ajralib, adibni serqirra ijodkor ekanligini isbotlaydi. Xususan, u o'z she'riyatida g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, murabba, musamman, tarje'band, qit'a, ruboiy, tuyuq, mulamma, chiston, muammo, masnaviy, bahri tavi, musoviy uttarafayn, marsiya, fard, soqiynomai murabba, oshiq va ma'shuq savol javobi va qasida janrlaridan foydalangan va

har bir janrda o'ziga xos serma'no va serjilo misralar bitgan. Biroq, Ogahiyning insonparvarlik xususiyati ko'proq uning hikmatlarida ko'zga tashlanadi. Zero, Ogahiy hikmatlarida inson xayotining har bir jabhasi kuzatiladi va ularning har biriga xayotiy va donishmand fikrlarini hikmatlari orqali kitobxonlarga yetkazgan. Ogahiyning ushbu hikmatlari keyinchalik mavzular kesimida alohida bir kitob shaklida o'quvchilarga taqdim etilgan. Xususan, kitob mundarijkasida dunyo hodisalari, dunyo sevgisi, rizq, vaqt va umr qadri, fidoyilik va olijanoblik, zulmu sitam kasofati, do'stlik va dushmanlik borasida, makru hiyla ofati, ta'ma-badnomlik asosi, saxovat va adolat afzalligi, kibr-shayton amali, dunyoning omonatligi va umrning g'animatligi, do'stlik va dushmanlik, orzu-maqсад-hayot mazmuni, dono va nodon bahsida, yaxshilik va yomonlik bobida, insoniy kamolot shartlari, insoniy xislat va illatlar haqida, nafsu havo-jonga balo minnat yuki tog'dan og'ir, yoshlik va qarilik tazodi, ahdga vafo-ezgu fazilat, hasad-adovat manbai, falsafiy mushohadalar, har mavzuda o'gitlar, mehru muruvvat-oliy qadriyat va boshqa bir qancha mavzular doirasida o'z hikmatlari bilan Ogahiy ko'pchilikning hurmati va mehrini qozongan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori Yaqubov Islomjon Axmedjanovich talqinidagi "Ogahiy-mangu barhayot siymo" [5] maqola adibning tarjomonlik mahorati haqida bo'lib, xususan sharq adabiyotining bebaho asari "Qobusnoma" ning Ogahiy qalamiga mansub turkiy tarjimai tahliliga bag'ishlanadi.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori Turdieva Oydin Zafardinovanning "Ogahiy she'riyatida talmeh san'ati" nomli maqolasi Ogahiy she'riyatida talmeh she'riy san'atining qo'llanilishiga bag'ishlangan. Adib mazkur san'atni qo'llash orqali matnning mazmun doirasini kengaytiradi, baytdagi fikr, holat, voqeani analogiyalar asosida qiyoslash orqali she'r badiiyatni kuchaytiradi.

Ushbu maqolani o'qigan kitobxon Ogahiyning she'riy ijodiyotida talmeh san'atining alohida o'rni egallashiga bevosita guvoh bo'ladi. Ogahiy o'xshatish san'atidan keng foydalangan holda o'z asarlarini yaratgan. Shu jumladan maqola muallifi Oydin Turdievaning quyidagi fikrlarini keltirib o'tamiz: "Mulohazalardan kelib chiqib xulosa qilamizki, talmeh san'ati Muhammadrizo Ogahiy g'azallarida yetakchi she'riy san'atlardan biri hisoblanadi. Shoir talmeh san'atidan oshiqning holatini ifodalash, mua'shuqaning xislatlarini ta'riflash, muayyan tarixiy hodisa va shaxslarga ishora qilish maqsadida foydalanadi. Shoir g'azallarida tasvirlanayotgan holat, ifoda etilayotgan fikr bilan tarixiy yoki badiiy faktlar orasida mushtarak nuqtalar mavjud" [6].

Ogahiy hayoti va ijodiga nazar solar ekanmiz. Adibning qalamiga mansub durdona asarlar o'zining serjilologi bilan ajralib turishiga guvoh bo'lamiz. Shu

jumladan, Ogahiy nafaqat shoir, tarixchi balki o'z zamonasining mohir tarjimoni bo'lib, u tarjima qilgan asarlariga huddi qaytadan jon bergandek edi. Kitobxonni o'ziga jalb etuvchi, go'zal satrlari alohida tahsinga loyiq. Shu sababdan Ogahiyning o'zbek tarjimonlik maktabining asoschisi deya ayta olamiz. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti katta o'qituvchisi, PhD Kabirova Nargiza Kaxramonovna [7] Ogahiyning hayot yo'li, uning siyosiy faoliyati va ijodi haqida ma'lumotlar beruvchi maqola mualliflaridan biri hisoblanadi. Muhammad Rizo Ogahiy ijodi o'zbek adabiyotiga o'ziga xos hissa qo'shgan ijodkorlardan. Ayniqsa boshqa tillardan tarjima qilgan asarlari ham bizning adabiy merosimizni boyitdi. Ogahiyning serqirra tarjimon va davlat arbobi sifatida yanada yaqindan tanib oldik. Kabirova Nargiza Kaxramonovnaning izlanishlari natijasida shunday ma'lumotlarni qo'lga kiritdik. Hozirgi kunda adib asarlarining 22 tasi 72 ta qo'lyozma nusxada dunyo fondlarida saqlanmoqda. Uning asarlarini birinchi bo'lib Armeni Vamberi Sayid Muhammadxon davrida Xivaga kelgan vaqtida olib ketgan, 1873-yili A. Kun xon xazinasidan 300 ta nodir kitoblarni olib ketganda Munis va Ogahiy larni asarlarini ham olib ketgan. Undan keyin V.V. Bartold juda ko'p Markaziy osiyolik tarixchilarni asarlari bilan birga Munis va Ogahiy asarlarini ham o'rganib o'zining "Turkiston sug'orilish tarixi" (1914) va "Turkman xalqi tarixidan lavhalar" (1929) kitoblarini yozgan. Undan keyin P.P. Ivanov va A.K. Borokovlar ham o'zlarining "O'rta Osiyo xalqlari tarixidan lavhalar" (1958) va "XIV-XIX asrlarda turkmanlar tarixi", M. Yo'ldoshev. 1956-yili "Xiva xonligida feodal er egaligi va davlat tuzilishi", Y. G'ulomov 1976-yili Ogahiy asarlariga suyanib o'zining "Xorazm sug'orilish tarixi" asarlarini yozganlar. Subutoy Dolimov 1962-yili "Ogahiyning hayoti va ijodiy faoliyati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va ijodining mahsuldorligi hamda asarlarining badiiy go'zalligi nuqtai nazaridan Ogahiy o'zbek adabiyotining buyuk vakili Alisher Navoiydan keyingi eng zabardast vakili, degan ilmiy xulosaga keldi. 1970-yili filologiya fanlari doktori Subutoy (Usmonbek) Dolimov va professor G'ulom Karimov hamkorlikda Ogahiyning 6 jildlik asarlar majmuasini nashrga tayyorlashga kirishib, bu ishni 1980-yili muvaffaqiyatli tugatdilar. Majmuaning 1-2 jildlari Ogahiyning lirik devoni "Ta'viz ul oshiqin" ni, 3-4-jildlari shoirning tarjima asarlarini, 5-6 jildlari esa Ogahiyning tarixiy asarlarini o'z ichiga oladi. 1991-yili Subutoy Dolimov Ogahiy tomonidan tarjima qilingan Kaykovusning "Qobusnoma" asarini tabdil qilib, nashrga tayyorlagan. Adibning qabri hozirgi kunda amakisi Shermuhammad Munis qabri bilan birgalikda Shayx Mavlon bobo qabristonida joylashgan bo'lib, ushbu joy Xiva yaqinidagi Eski Qiyot qishlog'ida joylashgan. Mohir tarjimon sifatida Munis tugallay olmay ketgan Mirxondning "Ravzat us-safo" asarining 2-3-jildlarini, Muhammad Mahdixonning "Nodirnama" (5 jild),

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tazkirai Muqimxoniy", Nizomiddin Ahmad Haraviyning "Taboqati Akbarshohiy", Rizoqulixon Hidoyatning "Ravzat us-safoi Nosiriy" nomli asarlari, Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Husrav Dehlaviyning "Haft Bihisht", Muhammad Vorisning "Zubdat ul-hikoyat", Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho", "Salomon va Ibsol", "Bahoriston", "Xaft avrang" asarlarlari, Badriddin Hiloliyning "Shohu gado", Vosifiyning "Bado'e ul-voqoe" kitoblarini, Kaykovusning falsafa va ahloq masalalariga bag'ishlangan "Qobusnoma" asarini, Husayn Voiz Koshifiyning "Ahloqi Muhsiniy", Imomiddin Fijduvoniyning "Mifot ut-tolibin" kitoblarini fors tilidan o'zbekchaga mahorat bilan tarjima qilgan.

Ogahiy ijodiyotini nafaqat sharq mamlakatlari, balki g'arbda ham qiziqib o'rganishadi. Ogahiy ijodiga beharq bo'lmagan. Ijodsevar insonlar uning yozgan asarlari va tarjima qilgan kitoblari orqali, ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lish bilan birga, ma'rifat, madaniyat va tarixni chambarchas bog'lagan buyuk yozuvchini ham kashf etishadi. Toshov N.I. ning "Ogahiy hayoti va ijodining g'arb mamlakatlarida o'rganilishi" [8] nomli maqolasi Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning hayoti, faoliyati hamda tarixiy va adabiy merosini o'rganish bo'yicha g'arb mamlakatlarida, xususan, Rossiyada ingliz va nemis tillarida chop etilgan tadqiqotlar tahliliga bag'ishlangan. Unda mazkur tadqiqotlarning o'z-o'zidan ayon yutuqlari qatorida ularda yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklar qayd etilib, ularning sabablari to'g'risida mulohazalar bildirilib, tegishli xulosalar qilinadi.

Ogahiy hayoti va asarlarining g'arbda o'rganilishini yoritishda va uning darajasiga baho berishda bir necha omillar nazarda tutilishi lozim. Shularning eng muhimlari qatorida umuman Xiva xonligi tarixi hamda eski o'zbek adabiyotining g'arb sharqshunosligida o'rganilganlik darajasi, mavzuning manbaviy bazasi, u yoki bu mamlakat yoxud mintaqadagi ilmiy an'analar kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ogahiy tomonidan bitilgan tarixiy asarlar haqidagi ilk ma'lumot asli kelib chiqishi nemis bo'lgan rus sharqshunosi, 1873-yilgi Xiva yurishi ishtirokchisi A.L. Kunning nemis tilidagi maqolasida e'lon qilingan. Bu ma'lumot juda qisqa bo'lib, bunda ham gap asosan Firdavs ul-iqbol va Shermuhammad Munis haqida boradi. 1873-yili xon saroyidan olib ketilgan va 1917-yilgacha A. Kunning shaxsiy tasarrufida bo'lgan qo'lyozmalar Sankt Peterburgdagi Osiyo muzeyi qaramog'iga o'tgach, boshqa bir sharqshunos K.G. Zaleman ushbu yangi qo'lyozmalar ro'yxatini o'z ichiga oluvchi nemis tilidagi maqolasini chop etdi. Unda Ogahiyning tarixiy asarlari ham zikr etiladi. Adibning hayoti, asarlari va tarjimalariga doir qisqa ma'lumotlar Y. Ekmanning "Chig'atoy adabiyoti" maqolasi va H.F. Hofmannning "Turk adabiyoti" nomli bibliografik qo'llanmasidan. E. Olvorsning "Zamonaviy o'zbeklar" kitobidan B. Kelner-Haynkelening maqolasidan

joy olgan. Bu ishlar asosan o'zbek va turk olimlarining tadqiqotlari asosida yozilgan. Misol uchun, Y. Ekmanning Ogahiy she'riyatida Alisher Navoiyning o'rni haqidagi fikri o'zbek tilidagi tadqiqotlarda ko'p bor ta'kidlangan. H.F. Hofmanning qo'llanmasida Ogahiy 1879-yili hali hayot edi degan yanglish ma'lumot mavjud. Hofman bu xato xabarni M.F. Ko'pruluning turk tilidagi "Islom ensiklopediyasi" da bosilgan "Chig'atoy adabiyoti" maqolasidan o'zlashtirgan bo'lib, Ko'pruluning o'zini esa Firdavs ul-iqbolning Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanadigan nusxasining kolofoni adashtirgan. Ogahiyning tarjimai holi, asarlari yoki ularning qo'lyozmalari haqida qisqa axborotni yana ba'zi umumiy mazmundagi ilmiy ishlarda ham uchratish mumkin. E'tibor berilsa, sanalgan ishlarning barchasi ensiklopediya maqolalari va umumiy xarakterdagi bio-bibliografik sharhlardan iborat. G'arbda Ogahiyning nisbatan keng ko'lamda va jiddiy asosda o'rganish Yuriy Enoxovich Bregel' nomi bilan bog'liq. U sobiq Sovet Ittifoqidan emigratsiya qilishdan avval, aniqrog'i, 1972-yiliy Firdavs ul iqbolning ilmiy tanqidiy matnini hozirlashga kirishib, bu ishni 1978-yili AQShda nihoyasiga yetkazdi va oradan 10 yil o'tib, ushbu hajmdor matnni ingliz tilidagi so'zboshi bilan nufuzli Brill nashriyatida nashr ettirdi. 1982–1989-yillar orasida u asarning ingliz tiliga ilmiy izohli tarjimasini amalga oshirib, 1999-yili tarjimini ham mazkur nashriyotda nashrdan chiqardi. Firdavs ul-iqbolning tanqidiy matni va inglizcha tarjimasiga yozilgan batafsil, biroq asosan bir birini takrorlovchi so'z boshilarida Yu. E. Bregel Ogahiyning (Munis bilan bir qatorda) tarjimai holi, xizmat faoliyati, ijodi, tarix yozish uslublari to'g'risida atroflicha so'z yuritgan. Bu materialning bir qismi uning 1980-yili "Islom ensiklopediyasi"ning inglizcha variantida bosilgan "Muhammad Rizo Miroy Ogahiy" nomli maqolasida ixcham shaklda berilgan edi. Bu ishlar, bir tomondan, Ogahiy hayoti va ijodi bilan bog'liq talay ilmiy masalalarning yechimiga, ikkinchi tarafdin esa, Firdavs ul iqbaldan foydalanuvchilar sonining sezilarli oshishiga xizmat qildi.

Ogahiy o'z ijodida, bir tomondan, ko'p qirrali ma'rifatparvar mutafakkir, fors, arab, turk tillarni mukammal bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan, u alohida qalb sirlarini kashf etuvchi shoir, abadiy ishq-muhabbatni kuylagan o'z davrining g'azal sultoni sifatida gavdalanadi. Mana shu xislatlar shoir lirikasida uyg'unlashdi, o'z ifodasini topdi. Shuning uchun ham Ogahiy g'azallari xalq xotirasida yashab kelmoqda, sevilib o'qilmoqda, ohanga solinib kuylanmoqda, ziyo va ezgu tuyg'ular manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Xanuzgacha hassos shoir g'azallari kitobxon hissiyotining nafis torlarini to'yengil chertib o'tadi, to'j'nbushga soladi. Kelajak avlodlar ham, ishonamiz, shoirning ijod chashmasidan bahramand bo'lib, qayta qayta unga murojaat qilishadi, she'rlarini yod olishadi, chiroyli kuylarga solishadi, chunki shoirning merosi barhayot [9].

Xulosa: Yuqorida Universitetimiz professori Xodjayeva Ra'no Umarovnaning fikrlariga qo'shilgan holda, maqola yakunida shuni xulosa o'rnida keltirib o'tmoqchiman-ki: Ogahiy ijodini o'rganar ekanmiz, diniy, ma'rifiy, dunyoviy va tarixiy bilimlarga ham ega bo'lamiz. Ogahiyning yozgan asarlarini orginal, tarjima qilgan asarlarini esa qayta hayot berilgan asarlari deb nomlasak hato bo'lmaydi. Ogahiyning ilgari surgan ishq, faqatgina shaxslararo emas, balki eng avvalo Allohga, islom diniga, vatanga, oilaga, jamiyatga, xalqqa, dinga ma'rifatga bo'lgan ishqdir. Ogahiy har jihatdan biz yoshlarga o'rnak bo'la oladigan, buyuk ijodkor, tarjimon, tarixchi, shoir ya'ni bir so'zi bilan ta'riflaydigan bo'lsak, serqirra ijodkor edi. Uning yozgan asarlari, g'azallari va she'rlarini o'qir ekansiz, har gal yangi tushuncha va xulosalar ega bo'lamiz. Insonning dunyoqarashi o'zgargani sari o'qigan kitobining mohiyatini, qayta kashf etadi. Shunday ekan, bizning qo'limizdagi bebaho xazinalardan samarali foydalangan holda, Ogahiy bobomizning durdona san'at asarlaridan bahramand bo'lishimiz va hayotga tatbiq etmog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi (XVII–XIX (I yarmi) asrlar). O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. –T.: 2006. 235–bet
2. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. – Toshkent, 2008. 78–bet
3. Xodjaeva R.U. Ogahiy g'azallarida she'riy san'atlar // Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy an'ana masalasi. –T., 2022. 4–bet
4. Muxibova U.U. Ogahiy hikmatlari haqida mulohazalar // Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy an'ana masalasi. – T., 2022. 13–bet
5. Yaqubov I.A. Ogahiy–mangu barhayot siymo // Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy an'ana masalasi. – T., 2022. 22–bet
6. Turdieva O.Z. Ogahiy she'riyatida talmeh san'ati // Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy an'ana masalasi. – T., 2022. 37–bet
7. Kabiroya N.K. Muhammad Rizo Ogahiy o'zbek tarjima maktabi asoschisi // Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy an'ana masalasi. – T., 2022. 54–bet
8. Toshov N.I. Ogahiy hayoti va ijodining g'arb mamlakatlarida o'rganilishi // Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy an'ana masalasi. – T., 2022. 70–bet

9. Xodjayeva R.U. Ogahiy gʻazallarida sheʼriy sanʼatlarm // Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy anʼana masalasi. – T., 2022. 9–bet

10. Alimbekov A.K. Ogahiy haqida yangi roman // Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy anʼana masalasi. –T., 2022. 13–bet

G.A'zamova.....	499
Oq va qora rang bilan bog'liq kodlarning O'zbek xalq ertaklaridagi ifodasi.	
H.Bozorov.....	504
Alisher Navoiy ijodida Muqbil va Mubdir obrazlarining ramziy xususiyatlari.	
Z.Mamadaliyeva.....	508
Reflections on comparative literary criticism and feminist theory.	
F.Abdumalikov, B.Togaev.....	512
The problem of categorization in comparative linguistics.	
Sh.Karshieva.....	515
The notion of emotive language and its importance in linguistics.	
M.Kurvonbekov, M.Alijonova.....	518
Современные тенденции и перспективы в исследованиях переводоведения: от теоретических основ до практических приложений.	
Г.Соибова.....	520
Ingliz tilidagi qisqartma so'zlar va akronimlarni o'zbek tiliga tarjima qilish tahlillari.	
S.Abdixamidova.....	525
O'zbek xalqi olamining media manzarasida "Xotira" lingvokognitiv hodisasining aks etishi.	
D.Agzamova.....	529
Gender sterotiplarining lingvistik xususiyatlari.	
M.Asqarova.....	533
Translation analysis of prepositions of time.	
B.Abdirasulov.....	537
Lingvopragmatikaning muhim masalalari: Deyksis va Presuppozitsiya.	
A.Badridinova.....	541
Словарный состав языка и его обогащение.	
A.Бойматов.....	545
Tarjima jarayonida atamalarini qo'llashning lingvistik xususiyatlari.	
N.Daminov, S.Nurillayeva.....	548
Bolalar nutqini rivojlantirishda ekstralingvistik omillarning roli.	
X.Davlatova, D.Jo'rayeva.....	551
Sociocultural aspects of expressive speech acts in english language.	
F.Kosimova.....	556
XIX asr O'zbek tilidagi "Tavorixi guzida - Nusratnoma" asari tiliga xos leksik elementlar.	
S.Gafurova.....	559
Linguistic points of sign language interpreting.	
G.Absamatova.....	563
Alisher Navoiy she'riyatida jon va o'lim muammosining badiiy talqini.	
M.Ibotova.....	566
Ogahiy ijodi sharqshunos olimlar nigohida.	
O.Ibrohimova.....	571
Ingliz tilida modallik kategoriyasining ifodalanishi.	
M.Obilov, T.Ahmadjonov.....	576
Nemis tilidagi holat fe'llarining semantik tasnifi.	
N.Ishanqulova.....	580
Stylistics and the teaching of literature in high education.	
Z.Juraeva, S.Shokirjonova, M.Anvarjonova.....	584
Происхождение и роль Лингводидактики совершенствовании лексической компетенции.	
M.Мамедова.....	588
Analysing the negativeness of online learning and technologies in education.	
K.Akhmadjonova.....	592
Begali Qosimov individual ijodkor, olim va pedagog sifatida.	
M.Ergasheva.....	596
Semantic characteristics of the official language in the speeches of the presidents.	
I.Tuychiyeva, D.Rakhimova.....	601